

**SAMARQANDDAGI AYRIM MUQADDAS QADAMJOLAR VA
ZIYORATGOHLAR XUSUSIDA**

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Alfraganus university

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

***Annotatsiya:**Maqolada, hududlarda mavjud bo'lgan muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy-axloqiy jihatlar to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Bu muqaddas qadamjolarida qabrlari bo'lgan aziz-avliyolar deb ulug'lanadigan tarixiy insonlar hamda ularning hikmatli so'zlari o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar.** Muqaddas qadamjolar, ziyoratgoh, tasavvuf allomalar, ma'naviyat, axloq.*

Davlatimizda buyuk mutafakkirlar-allomalar, avliyolar tarixi bilan bog'liq ilmiy anjumanlar o'tkazish, ular dafn etilgan qabrlarni ta'mirlash, qayta tiklash, obodonlashtirish, ma'naviy qadriyatlar sifatida e'zozlanmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev qanday ziyoratgohlarga tashrif buyursalar "Muqaddas qadamjolarimizni obod qilsak, yurtimizga baraka yog'iladi. Ularni ziyorat qilish yurtdoshlarimiz uchun ham qarz, ham ulkan saodatdir" deya, bu joylarni obod qilish masalasini alohida ta'kidlab, bu joylarni tarixini o'rganish, ulamoning hayoti va ilmiy merosini o'rganib, yosh avlodni ajdodlarimizning ma'naviy merosi asosida tarbiyalash zarurligini ham aytib o'tadilar. [1]

O'zbek xalqining hayot tarzida qadimdan insonlar hayotidagi eng muhim voqealarning aksariyati muqaddas joylarni ziyorat qilish bo'lib, maishiy hayotdagi shaxsiy muammolar bilan bog'liq e'tiqod shakllari asrlar davomida shakllanib, mental qiyofa kontekstidagi boshqa muhim jihatlariga, jumladan, ona yurtga mehr-muhabbat, ota-bobolar ruhi pokiga e'zoz va hurmat odobini shakllanishiga ta'sir

ko'rsatgan. Ziyoratgohlar va ular bilan bog'liq an'analar madaniyatning muhim komponentlaridir.

VIII asrda yurtimizga islom dini va madaniyatining kirib kelishi bilan ulug' allomalar, avliyolarga bo'lgan e'tiqod kuchaydi. Ularning vafotidan so'ng qabrlari oboq qilinib, ziyoratgohlarga aylantirilgan. Avliyolarning qadamjolariga borib ziyorat qilishning sababi shundaki, avliyolarni hurmatini bajo keltirish, ular yaratgan ma'naviy merosni o'rganish, kelajak avlodga ajdodlari to'g'risida ma'lumotlar berishdir. Bu hodisa o'zbek millatining mental xususiyatlaridan birini tashkil qiladi.

“Ziyorat”- atamasi arabchadan, “biror yerga yoki shaxs huzuriga borish” ma'nosini anglatadi. Islomiy ma'noda – muqaddaslashtirilgan mozorlar, qadamjolar, ziyoratgohlarga borib, ma'lum bir rasm-rusumlarni bajarish, qalbni poklashdir. Mamlakatimizning barcha hududlarida bunday maskanlar talaygina, ular nafaqat diniy-ma'rifiy maskan, balki yuqorida aytganimizdek, yoshlarimizni tarbiyalashdagi o'ziga xos tarbiya o'chog'i funksiyasini ham bajarmoqda.

Mamlakatimizda, muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar xalqaro ruhiy taskin beruvchi, savobli ishlarni amalga oshiruvchi maskan sifatida emas, balki uni yanada imkoniyatlarini yuksaltiruvchi turistik maskanlarga aylantirish dolzarb bo'lib bormoqda. Turizm sohasi XXI asrda eng daromad keltiruvchi sohaga aylangan. Ziyorat turizmini rivojlantirish ham boshqa turizm sohalari kabi mamlakatimiz milliy va mintaqaviy iqtisodiyotini mustahkamlashda muhim o'rinni egallaydi. Zero, “Ziyorat turizmi bo'yicha mamlakatimizning salohiyati juda yuqori” bo'lib, hozirgi kunda musulmon mamlakatlari uchun vizasiz rejim yaratilgan. [2]

Samarqand zaminida minglab taniqli shaxslar, yuzlab allomalar va o'nlab eng buyuk imom-allomalar o'tishgan. Hozirgacha birgina Samarqand zaminida dunyo miqyosidagi eng buyuk allomalardan 25 nafarining tarixlari va qabrjoylari aniqlaganmiz. Bu chegara bo'lmay, kelgusi tadqiqotlar natijasida ularning soni kengayishi aniq. Eng buyuk allomalarning aksariyatlari fiqh, hadis, kalom allomalari bo'lishib, qolganlari tasavvuf tariqati peshvolari va davlat arboblari

bo'lishgan. Ushbu buyuklarning 9 nafarini qabrjoylari ilm ahliga avvaldan ma'lum; 13 nafarining qabrjoylari esa Mustaqillikdan so'ng aniqlab, tarixlarini kitoblarda yoritganmiz; 3 nafari esa o'zga yurt va qo'shni viloyatlarda dafn etilgan. [3:4.]

Tasavvuf allomalari bo'lgan buyuk ilm-fan fidoyilari, ulug' ijodkorlarga mansub tarixiy obidalar joylashgan hududlar ham hozirda shu hudud mahalliy aholisiga ma'lum bo'lib, ular to'g'risida ommalashgan ma'lumotlar kamchilikni tashkil qiladi. Ammo bu obidalar ichki turizmni rivojlantirishda katta salohiyatga egadir. Samarqand zaminidagi ulug' mozorotlarni tizimlashtirilgan, unga ko'ra 20 ta mozorotlar ro'yxati shakllantirilgan.

“Al-Buxoriy, ad-Doramiy, al-Moturidiy, al-Hakim Samarqandiy, Abu Laysiy, Burhoniddin Marg'inoniy, ar-Rastug'foniy, al-Kindiy, al-Foris, al-Usmandiy, an-Nasafiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A'zam Dahbediy, Shayx Xudoydodi Vali, Shayx Maxdumi Xorazmiy va Bobur mirzo kabi yurtimiz shuhratini butun dunyoga yoygan Samarqandiylar (yoki shu yerda ko'milib, bu nomga erishganlar) ilmu fan, tasavvuf va siyosat bobida muqaddas zaminimizga teng keladigan boshqa yurt yo'qligiga o'zgalarni imonga keltirganlar. [4:15]

Qadimiy tarixchi Yoqutining shahodat berishicha, Xudo asragan shahar Samarqandda yashash va vafot topib ko'milish juda katta sharaf hisoblangan; kimki Samarqandda vafot etsa, go'yo yettinchi osmonda vafot etgani kabi hisoblanar va maloikalar qatorida jannatga kirar ekan. Albatta, bu rivoyatu naqlar Samarqanddagi ulug' ziyoratgohlarga ko'milgan buyuk imomlar, mutasavvuf allomalar hamda ularning izdoshlari haqida aytilgandir. [5:78]

Movarounnahr olimlari oltin silsilasini boshlab bergan eng avvalgi imomlar Imomi ad-Doramiy as-Samarqandiy; keyinchalik ul zotdan ilm bobida o'zib ketgan shogirdi va butun dunyo imomi nomi ila sharaflangan al-Buxoriy; islom olamining aksariyatini tashkil etgan sunnat ahli va jamoasining raisi, kalom-aqoid (e'tiqod) ilmining asoschisi Imom al-Moturidiy as-Samarqandiy; ilmi hikmat va haqiqat asoschisi buyuk Imom Abul Qosim al-Hakim as-Samarqandiy; kalom va fiqh ilmining buyuk davomchisi Imom Abu Lays as-Samarqandiy; islom olamidagi eng

ulug' mazhab bo'lgan Hanafiya mazhabining buyuk fiqhshunos olimi Imom Burhoniddin Marg'inoniy as-Samarqandiylardan nafaqat islom ahli, balkim dunyodagi barcha ilm ahllari rozidirlar hamda ilmiy jasoratlaridan abadul-abad minnatdorlar. [6:16]

Qadimdan Samarqandning Shohizinda, Banni nojiya, Hazrati Xizr, Xoja Abdu Darun, Chokardiza kabi dunyoga mashhur va eng qadimiy mozorotlari, Go'ri Amir, Xoja Ahrori Vali, Maxdumi A'zami Dahbediy, Shayx Xudoydodi Vali, Xoja Ishoqi Vali nomi bilan atalgan katta va islom olamida mashhur qabristonlari hamda hozirga kelib nomlari o'chib ketgan Hubob, Fotfar, Xon Sayid Imom, Qutbi Chahordahum, Ruhobod, Radrad (Razroz), Sangrason, Jurjoniya atalmish o'nlab tarixlari ma'lum noma'lum mozorot-oxiratgohlari ham bo'lgan. [6:17]

Samarqand qadimdan el orasida mashhur bo'lgan tarixiy shaxslar, allomalar, avliyolar, sufiylarning yashab o'tganligi bilan, ularning qabrlari ustiga hurmatlari uchun maqbaralar, xonaqohlar qurilganligi bilan ham mashhurdir. Aziz-avliyolarning mozorlarini, qabristonlarni ziyorat qilib turish islom dinida savobli ish hisoblanadi. Ziyoratgohlarga borish, ularni e'zozlash, diniy qadriyat hisoblanadi. Din aholini eng oliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qiladi. Kishilar turmushdagi shaxsiy musibat va omadsizlik, ayniqsa, befarzandlik, yaqin kishilarining baxtsizligi, hayot ideallaridan ajralib qolish, kasallik yoki o'limdan xavfsirash, yolg'izlik his-tuygusi va shu kabi boshqa ijtimoiy-psixologik omillar insonlarni diniy hissiyotlarga berilish natijasida ziyoratgohlarga borishlariga sabab bo'lgan.

Shayx Xudododi Vali bobo deb ataladigan joyning tarixi, nima uchun "Vali bobo" deb atalishi to'g'risida hozirgi kunda ancha ma'lumotlar uchrasada, o'zbek olimlari o'rtasida yirik tadqiqot ishlari olib borilmagan. Valixo'jayev B, O'rinboyev B, Xurshid Davron kabi olimlar turkiy tasavvuf she'riyatining vakili sifatida Xudododi Vali hayoti va ijodini o'rganishadi.

Xudododi Valining adabiy faoliyati jabrlanib, hayotdan bezib, umidsizlangan jamiyat hayotini aks ettirgan. Xudododi foyda qilgan beklar, oqsuyaklar, askar boshliqlari hamda ularning dumlari bo'lib yashagan mulla, eshonlar qatorida

bo'lmadi, aksincha mazlum xalqning orasida bo'ldi. Mehnatkashlarning qayg'ulari bilan yig'lashga majbur bo'ldi va yig'ladi. [7:7]

Xudododi Vali Samarqand viloyati Jomboy tumani G'azira qishlog'ida milodiy 1532-yilda 71 yoshda vafot etgan. Hozirgi kunda bu tabarruk maskan Samarqand ziyoratgohlaridan biri sanaladi. Xalq ichida mashhur bo'lgan bu hududga tashrif buyuruvchilar soni ko'payib bormoqda. Allomaning turkiy va forsiy tillardagi g'azallari, hikmatlari, fardlari mazmuniga ko'ra orifona, nasihatomezdir. Xudododi Valining qarashlarida tasavvufiy yondashuv kuchli bo'lgan. Ilm, ma'rifat, poklik, halollik, Alloh go'zalligi, insoniy go'zallik to'g'risida hayotiy hikmatlar yozadi:

Inson o'zida go'zal axloqiy fazilatlarga ega bo'lishini, ya'ni adolatli bo'lishi, haqiqatga intilishi, rost gapirishi, yaxshi niyatli, bilimli, ma'rifatli bo'lishi lozimligini aytadi. Agar inson mazkur jihatlarni o'zida shakllantirmas ekan, uning ro'za tutishi, namoz o'qishi, Allohga toat ibodat qilishi bekorligini mazkur g'azal mazmuniga singdirgan. Inson o'zligini anglashi, yaxshi sifatlarni o'zida shakllantirishi lozimligi, insonning go'zal xususiyatlarga egaligi ifodalangan. Ilmli insonlarni e'zozlab "azizlar" deb nomlaydi.

Xudododi Valining aytgan so'zlari, hikmatlari insonlarni o'z hayotlarini o'ylashga, insoniylik, odamiylikdan chiqib ketmaslikka chorlaydi. Shu sababli, uning qabri joylashgan joy ziyoratgohga aylangan. Mazkur qadamjoga insonlar toat ibodat qilish bilan birga o'z ajdodlari xoki poyiga hurmat bajo keltiradilar, ularga munosib bo'lishga intiladilar. Qalblarini ma'naviy poklaydilar, yomonlik, isrofgarchilik, yolg'onchilikdan o'zlarini tiyish uchun o'zlariga va'dalar berishadi.

Bugungi kunda ziyoratchilarning ziyorat davomida qilayotgan ishlari muqaddas islom dini ta'limotlariga zid kelayotgani achinarli holat. Ziyoratgohlarda ba'zilar niyat qilganmiz deb, ushbu joy yoki shaxsga atab qurbonliq qiladilar, ya'ni jonliq so'yadilar, baxti ochilmagan qizlar supurgi olib maqbarani yoki ziyoratgohni niyat qilib supurishadi, daraxtga niyat qilib, ip yoki latta bog'lashadi. Shuningdek, Xudodan baxt, farzand shu bilan birga, turli xil kasalliklarga davo so'rab kelishadi. Shu ishlarni qilishsa, go'yoki, barcha yomon tuyg'ulardan ozod bo'lgandek

o'zlarini engil sezadilar. Ammo islom dini ta'limotiga ko'ra, qurbonliklar faqatgina Alloh nomi ila so'yilishi kerak, aks holda harom bo'ladi. Baxtni ham, farzandni ham, yaxshilikni ham, yomonlikni ham Alloh bandasiga sinov tariqasida beradi, deyilgan.

Ziyoratchilar ziyoratgohda qiladigan ishlarini va dilida uylagan niyatu istaklarini o'z xonadonlarida yomon va xunuk ishlardan o'z nafsini tiyib risoladagidek, insoniylik me'yorlariga rioya etib, halol mehnat qilib yashasa hayoti va oilasi fayzli va barokatli bo'lsa kerak.

Samarqand viloyatidagi ziyoratgohlardan biri Mahdumi A'zam ziyoratgohi bo'lib, Maxdumi A'zamning obru-e'tibori nafaqat Movarounnahr, balki, Xuroson va Hindistonda ham mashhur bo'lgan. Minglab musulmonlar Maxdumi A'zami o'zlariga pir deb bilganlar.

Bu ulug' zot 1461 yili Axsikent viloyati (hozirgi Farg'ona viloyati)ning Koson shahrida tavallud topgan. Yoshligidanoq ilmga chanqoq bo'lgan Kosoniy dastlabki ilmni o'z yurtida olgan, so'ngra, Samarqandga kelib o'qishni davom ettirgan va mavlono Muhammad Qozidan ilm – ma'rifat sirlarini o'rgangan. Sayyid Ahmad Kosoniyning nasablari Muhammad payg'ambar avlodlariga borib taqaladi. Shu sabab, u kishining sulolasi xalq o'rtasida mavqeyi baland edi. Kosoniy Samarqand va Toshkentda o'z bilimini oshirgach o'z yurtiga qaytib boradi va ilm-ma'rifat bilan mashg'ul bo'ladi. Shayboniy Jonibek Sulton Kosoniyga elchi yuborib katta hurmat bilan o'z saroyiga chorlaydi. Kosoniy Sultonning taklifiga rozi bo'lib, dastlab, Samarqandga keladi va so'ngra Karmanada yashay boshlaydi. So'ngra Jonibek Sulton Miyonqoldagi (hozirgi Dahbed qishlog'idagi) yer-suvlarni unga mulk qilib beradi. Shundan so'ng Sayyid Ahmad Kosoniy to umrining oxirigacha shu yerda yashab, 1542 yilda vafot etadi. [8]

Dahbeddagi Mahdumi A'zam ziyoratgohida bugungi kungacha jami 47 ta qabrtosh saqlangan bo'lib ularni ko'pchiligining shaxsiyatlari aniqlangan. Hozirgi kunda Mahdumi A'zam tarixiy ziyoratgohiga kiruvchi dahma, masjid va xonaqohlar ta'mirlanib, atroflari obodonlashtirildi. Mahdumi A'zam qoldirgan boy ma'naviy meros bugungi kunda keng miqyosda o'rganilmoqda va bu ulug'

zotning ayrim asarlari katta nusxada chop etilmoqda. [9]

Samarqand zaminida ulug‘ mozorotlar juda ko‘p, ularning ko‘pchiligi tasavvuf allomalariga mansub bo‘lib, Dahbed qabristoni ham shular jumlasidandir. 1993 yilda Maxdumi A‘zam qadriyatiga hurmat bilan Samarqand ko‘chalaridan biriga nomi berildi. Maxdumi A‘zamning farzandlaridan qolgan avlodlar aksariyat qismi hozirda Dahbed mavzeida yashaydilar va ularning aniq yozilgan shajaralari ham bor.

Mamlakatimizda mavjud muqaddas ziyoratgohlar, maqbaralar, qadamjolar diniy va milliy qadriyatlardan hisoblanadi. Mazkur joylarga borish, turli amallarni bajarish milliy, diniy, psixologik hamda tarixiy ildizlarga ega. Ularni ilmiylik asosida chuqur o‘rganish jamiyatimiz ma‘naviy hayotining yuksalishiga, aholi o‘rtasidagi ayrim salbiy odatlarga barham berilishiga, shu bilan birga, ijobiy xislat va urf-odatlarining shakllanishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Yoshlarni sog‘lom e‘tiqodi, to‘g‘ri dunyoqarashini shakllantirishga, shuningdek allomalarimiz ma‘naviy merosi va ibratli hayoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar targ‘iboti asosida vatanparvar, bag‘rikeng va jonkuyar saxovatli, diyonatli shaxs sifatida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Амонов Б. Жамиятнинг маънавий ҳаётида муқаддас қадамжоларнинг аҳамияти. <https://www.bukhari.uz/?p=6838>
2. Туризм мамлакатимиз иқтисодиётининг эртанги куни. <https://uzlidep.uz/news-of-party/14351>
3. Каттаев К. Юртимизнинг ўта буюк алломалари, Имом Али Суғдий ва Кумушкент тарихи. Илмий-оммабоп рисола. – Т.: Наврўз, 2020. – 4 б.
4. Каттаев К. Самарқанднома. – Т.: Mashhur-press, 2017. - 15 б.
5. Самъоний. Китабул-ансоб (тадқ. Ш.Камолиддинов). – Т., 1993. – 78 б.
6. Каттаев К. Самарқанднома. – Т.: Mashhur-press, 2017. – 16 б.
7. Валихўжаев Б. Ўринбоев Б. Худододи Вали. – С.: СамКИ, 1995. – 7 б.

8. Худоёров И. Махдуми Аъзам зиёратгоҳи <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/10686>

9. Худоёров И. Махдуми Аъзам зиёратгоҳи <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/10686>

10. ТУРСУНКУЛОВА ШАХНОЗА ТУЙЧИЕВНА. (2023). ПРОБЛЕМА ДУХОВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА В ИСЛАМСКИХ ЦЕННОСТЯХ. *Международный журнал философских исследований и социальных наук*, 3(3), 112-116. Извлечено из <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/484>

11. Амировна З.А. (2023). Роль цифровых технологий в совершенствовании экологического образования и развития. ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЙ ЖУРНАЛ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК И ИСТОРИИ , 4 (4), 67-71. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/6BSQR>